



# INNOVATION IQTISODIYOT

*Ilmiy-amaliy elektron jurnal*

**2026**

**№5**

**ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА**

Научно-практический электронный журнал

**INNOVATIVE ECONOMY**

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



# INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY  
ELEKTRON JURNAL

5-jild  
5-son  
May, 2026

May, 2026  
Volume 5  
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ  
ЭКОНОМИКА  
Научно-практический  
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY  
Electronic scientific and  
practical journal



## INNOVATSION IQTISODIYOT

### ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

#### Muassis:

**Qarshi davlat texnika universiteti**

**Tahririyat Kengashi raisi:**

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:**

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

#### Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

#### Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

#### Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:**

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

#### TAHRIRIYAT KENGASHI:

##### Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

##### Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



## ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

### Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

**Учредитель:**

**Каршинский государственный технический  
университет**

**Председатель редакционного совета:**

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

**Заместитель председателя редакционного совета:**

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,  
профессор

**Ответственный редактор:**

Н.А.Очилова, PhD, доцент

**Технический редактор:**

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в  
электронной форме и публикуется через  
официальный сайт журнала.

*Адрес редакции:*

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: [innoeconomic@kstu.uz](mailto:innoeconomic@kstu.uz)

Научно-практический электронный журнал  
«Инновационная экономика» включён в перечень  
национальных научных изданий на основании  
решения Президиума Высшей аттестационной  
комиссии при Министерстве высшего образования,  
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5  
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по  
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное  
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и  
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

#### Редакционная коллегия:

##### Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик  
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор  
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,  
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский  
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик  
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор  
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.  
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент  
(Национальный исследовательский университет  
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник  
(Российского университета дружбы народов имени  
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент  
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент  
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,  
профессор (Национальная академия наук Республики  
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор  
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский  
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор  
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского  
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент  
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент  
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем  
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский  
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

##### Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,  
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),  
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



**Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi**

**Service sector and tourism**

**Сфера услуг и туризм**



# ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY TARAQQIYOTGA TA'SIRI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

*Uzaqov Jamshid Norboyevich*

## ВЛИЯНИЕ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА НА РЕГИОНАЛЬНОЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО РАЗВИТИЯ

*Узаков Жамшид Норбоевич*

## THE IMPACT OF PILGRIMAGE TOURISM ON REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT AND ITS DEVELOPMENT PROSPECTS

*Uzakov Jamshid Norboyevich*

Received: May 18, 2026 May: May 22, 2026 May: May 25, 2026 Published: June 1, 2026

**Annotatsiya.** Maqolada ziyorat turizmining mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi – ziyorat turizmi orqali hududiy iqtisodiyotda qo'shimcha qiymat yaratish, bandlikni oshirish, kichik biznes va xizmatlar sohasini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Tahlil jarayonida turizmning multiplikativ samarasi, infratuzilmaga ta'siri, mahalliy byudjet daromadlariga qo'shayotgan hissasi hamda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish omillari o'rganilgan. Mintaqaviy xususiy sektor subyektlariga ziyoratgohlarni rivojlantirish uchun qulay investitsiyaviy muhit yaratish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish muhim omil sifatida asoslangan.

**Kalit so'zlar.** xususiy sektor, ziyoratgohlarni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik, investitsiyaviy muhit, soliq imtiyozlari, kredit qo'llab-quvvatlash, infratuzilma modernizatsiyasi, tadbirkorlik faolligi, hududiy bandlik, mintaqaviy daromadlar.

**Аннотация.** В статье проанализировано влияние паломнического туризма на региональное экономическое развитие. Цель исследования заключается в выявлении механизмов создания добавленной стоимости в территориальной экономике, повышения занятости, а также развития малого бизнеса и сферы услуг посредством паломнического туризма. В процессе анализа изучены мультипликативный эффект туризма, его влияние на инфраструктуру, вклад в доходы местных бюджетов, а также факторы повышения инвестиционной привлекательности. Обосновано, что создание благоприятного инвестиционного климата для субъектов регионального частного сектора в целях развития объектов паломничества и расширение механизмов государственно-частного партнёрства являются важными факторами устойчивого развития.

**Ключевые слова:** частный сектор, развитие объектов паломничества, государственно-частное партнёрство, инвестиционный климат, налоговые льготы, кредитная поддержка, модернизация инфраструктуры, предпринимательская активность, региональная занятость, региональные доходы.

**Abstract.** The article analyzes the impact of pilgrimage tourism on regional economic development. The purpose of the study is to identify the mechanisms for creating added value in the territorial economy, increasing employment, and fostering the development of small businesses and the service sector through pilgrimage tourism. The analysis examines the multiplier effect of tourism, its impact on infrastructure, its contribution to local budget revenues, and the factors enhancing investment attractiveness. It is substantiated that creating a favorable investment climate for regional private sector entities to develop pilgrimage sites and expanding public-private partnership mechanisms are important factors for ensuring sustainable development.

**Keywords.** private sector, development of pilgrimage sites, public-private partnership, investment climate, tax incentives, credit support, infrastructure modernization, entrepreneurial activity, regional employment, regional revenues.



## KIRISH

Ziyorat turizmi — dunyodagi eng qadimiy va keng tarqalgan turizm yoʻnalishlaridan biri boʻlib, yil sayin millionlab odamlarning ruhiy, madaniy va tarixiy qadamjolarni ziyorat qilishiga asoslangan.

Jahonda ziyorat turizmi katta iqtisodiy ahamiyatga ega boʻlib, ayniqsa tarixiy va diniy merosga boy Osiyo mamlakatlarida bu yoʻnalish sezilarli darajada rivojlanmoqda. “Global Muslim Travel Index (GMTI) maʼlumotlariga koʻra 2018- yilda global miqyosda musulmon sayyohlar soni taxminan 140 million nafarni tashkil qilganligi qayd etilgan. 2023-yilda esa musulmon sayyohlar soni yana 140 millionga yetishi kutilmoqda, 2022-yilda esa ular 110 million atrofida boʻlgan. Musulmon sayyohlar tomonidan sayohatga sarflangan xarajat 2023-yilda 216,9 milliard AQSh dollarini tashkil etgan boʻlsa, 2028-yilga borib bu koʻrsatkich 384,1 milliard AQSh dollarigacha oʻsishi prognoz qilinmoqda. Global musulmon sayyohlar soni 2028-yilga kelib 230 millionga yetishi kutilmoqda<sup>93</sup>.

Oʻzbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga ega. Buyuk Ipak yoʻli yoʻnalishida joylashgan vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega boʻli, ziyorat turizmi salohiyati yuqori boʻlgan davlatlardan biri sifatida eʼtirof etilgan. 2019-yilda imzolangan Buxoro deklaratsiyasi asosida Oʻzbekiston jahon ziyorat turizmi markazlaridan biri deb tan olingan, shu bilan birga Global Muslim Travel Index reytingida 153 mamlakat ichida 17-oʻrinni egallagan<sup>94</sup>.

2020–2025 yillar davomida Oʻzbekistonning ziyorat obʼektlarini rivojlantirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi barobarida muqaddas joylarning turistik salohiyati yildan-yilga oshib bormoqda. Oʻzbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan boʻlib, boy madaniy va tarixiy merosi, mehmondoʻst xalqi, mazali milliy taomlari hamda goʻzal tabiati bilan turizm sohasini kengaytirishga tayyor. Hukumat ziyorat turizmini mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim va yuqori oʻsish salohiyatiga ega tarmoq sifatida baholaydi. Oʻzbekiston koʻp yillar davomida xorijliklar uchun yopiq boʻlgan, biroq hozirda hukumat turizmni rivojlantirish maqsadida madaniy va tarixiy meros obʼektlariga kirishni kengaytirish boʻyicha islohotlarni amalga oshirmoqda.

Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh va Yaqin Sharq mamlakatlaridan parvozlar sonini koʻpaytirish, malakali gidlar tayyorlash hamda ziyoratgohlarga olib boruvchi yoʻllar va infratuzilmani yaxshilash choralari koʻrilmoqda. Mamlakatda 1 200 dan ortiq ziyoratgoh mavjud boʻlib, yiliga 1 milliongacha ziyoratchi jalb qilish imkoniyati mavjud. Oʻzbekiston 2025-yilda Global Muslim Travel Index reytingida 153 mamlakat orasida 17-oʻrinni egalladi. 2024 yilda Islom

hamkorlik tashkiloti Xivani Islom dunyosi turizm poytaxti deb eʼlon qildi<sup>95</sup>.

Ziyorat turizmi nafaqat diniy-maʼnaviy ehtiyojlarni qondiruvchi yoʻnalish, balki mintaqaviy iqtisodiy oʻsishni taʼminlovchi muhim iqtisodiy instrument sifatida namoyon boʻlmoqda. Uning multiplikativ taʼsiri hududlarda savdo, transport, mehmonxona xoʻjaligi, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmat tarmoqlarining rivojlanishiga bevosita turtki beradi. Ziyoratchilar oqimining ortishi infratuzilmani modernizatsiya qilishni talab etadi, bu esa investitsion faollikni kuchaytiradi va yangi ish oʻrinlari yaratilishiga olib keladi. Natijada mahalliy byudjet daromadlari kengayadi, hududiy iqtisodiyot diversifikatsiyalanadi hamda xususiy sektor subyektlarining ishtiroki oshadi.

Mazkur tadqiqot ziyorat turizmining mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi oʻrnini ilmiy asosda baholash, uning iqtisodiy samaradorlik mexanizmlarini aniqlash hamda xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik doirasida rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Shu orqali ziyorat turizmini barqaror hududiy taraqqiyotning strategik omillaridan biri sifatida asoslash koʻzda tutiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Ziyorat turizmini jahon turizm bozoriga integratsiyalash va uning mintaqaviy iqtisodiy oʻsishga taʼsiri masalalari soʻnggi yillarda jahon va Oʻzbekistonda faol oʻrganilmoqda. Mazkur yoʻnalishda xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlar va tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, R. Timothy va D. Olsen tomonidan ziyorat turizmi global turizmning barqaror rivojlanayotgan yoʻnalishlaridan biri sifatida baholalanib, uning hududiy iqtisodiyot va madaniy almashinuvga taʼsiri ilmiy asosda yoritilgan<sup>96</sup>. J.Collins-Kreiner tadqiqotlarida esa ziyorat turizmining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, barqaror turizm konsepsiyasi bilan uygʻunligi va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Muallif ziyorat turizmini xalqaro turizm bozoriga integratsiyalash hududiy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy taʼsir koʻrsatishini asoslaydi<sup>97</sup>. Oʻzbekistonda N.Ochilov va M. Sirojiddinova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda diniy turizmni rivojlantirish istiqbollari, uning iqtisodiyotga taʼsiri va xalqaro turizm bozorida oʻrni tahlil qilingan<sup>98</sup>. Shuningdek, S.Abdullayeva Oʻzbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning marketing, infratuzilma va institutsional jihatlarini oʻrganib, mamlakatning boy diniy-madaniy merosi xalqaro turizm bozorida raqobatbardosh mahsulot sifatida baholagan<sup>99</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ziyorat turizmining mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga taʼsirini baholash uchun tizimli yondashuv qoʻllanildi. Tahlil jarayonida rasmiy statistik maʼlumotlar asosida dinamik va taqqoslama tahlil usullari qoʻllanilib, ziyoratchilar oqimi, xizmatlar hajmi, bandlik koʻrsatkichlari va hududiy daromadlar oʻzgarishi

<sup>93</sup> [https://seads.adb.org/news/indonesia-and-malaysia-share-top-spot-global-muslim-travel-index-2023?utm\\_source](https://seads.adb.org/news/indonesia-and-malaysia-share-top-spot-global-muslim-travel-index-2023?utm_source)

<sup>94</sup> [https://www.apta.uz/en/news/47?utm\\_source](https://www.apta.uz/en/news/47?utm_source)

<sup>95</sup> [https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-travel-and-tourism?utm\\_source](https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-travel-and-tourism?utm_source)

<sup>96</sup> Timothy D., Olsen D. Tourism, Religion and Spiritual Journeys. Routledge, 2006.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

<sup>97</sup> Collins-Kreiner N. Researching pilgrimage tourism: Continuity and transformations. Annals of Tourism Research, 2020.

<sup>98</sup> Scientific Journal of Tourism and Hospitality, 2023 <https://scientific-jl.com>

<sup>99</sup> Journal of Management and Service Innovation, 2024 <https://inlibrary.uz>



o'rganildi. Iqtisodiy-mantiqiy tahlil yordamida turizmning qo'shimcha qiymat yaratish mexanizmlari asoslandi. Shuningdek, ziyorat turizmining infratuzilma, xususiy sektor va mahalliy byudjet daromadlari bilan o'zaro bog'liqligi tizimli ravishda baholanib, mavjud tendensiyalar asosida uning kelgusidagi iqtisodiy ta'siri prognoz qilindi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyoda ziyorat turizmining ahamiyati doimiy ravishda oshib bormoqda va bu ziyorat turizmining ma'lum bir mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Ziyorat turizmi biznesi boshlang'ich investitsiyalar kichikligi, sayohat xizmatlariga talab ortib borayotganligi, rentabellik darajasi yuqoriligi, to'lov muddati minimalligi tufayli tadbirkorlar uchun jozibali hisoblanadi.

Ziyorat turizmi infratuzilmasi – ziyorat turizmini rivojlantirish va resurslardan maqsadli foydalanish asosidir. Ziyorat turizmi infratuzilmasining ahamiyati uning turizm xizmatlarini ishlab chiqarish va tarqatish samaradorligini oshirishga hissa qo'shishi, ba'zi holatlarda, masalan, hatto uzoq joylarda turizm xizmatlari ko'rsatishni ko'paytirish mumkinligida aks etadi. Shunga qaramay, globallashtirish va jahon ziyorat turizmi bozoridagi keskin raqobat sharoitida turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari ko'rsatish sifati va darajasi har doim ham zamon talablariga mos kelmaydi.

Ziyorat turizmi infratuzilmasini yanada kuchaytirish zarurati mamlakatimizda, shu jumladan, Qashqadaryo viloyatida ham kelgusida ziyoratchilar sonining ortishini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Ziyorat turizmi infratuzilmalari, shu jumladan, mehmonxona, kemping, motel, tematik park, muzey,

galereya va boshqa turistlarni qabul qiladigan, joylashtiradigan joylarni ko'paytirishni taqozo qiladi. Buning uchun Qashqadaryo viloyatida va uning turistik resurslari bor hududlarida xatlov o'tkazish orqali bo'sh turgan yer maydonlarini aniqlash va zaxira sifatida belgilash lozim. Bunda aniqlangan bo'sh turgan yer maydonlarini va zaxira hududlarda ziyorat turizmi infratuzilmalarini barpo etish bo'yicha yangi joylarning dizayn-loyihalarini jahon standartlariga mos ravishda ishlab chiqish ham maqsadga muvofiqdir.

Ziyoratga tayyorgarlik ko'rish va amalga oshirishning barcha bosqichlarida marosim amaliyotiga hamda turli xalqlarning ijtimoiy-madaniy an'analariga tayanadi. Turli dinlarda ziyorat tashqi jihatdan aniq o'xshashlikka ega bo'lib, bu jihat uning tuzilma nuqtai nazaridan deyarli har doim to'rt xil bosqichda kechishida namoyon bo'ladi:

- ❖ ziyoratga tayyorgarlik ko'rish (Iqtisodiy jihat — xizmatlar va savdo bozorida dastlabki talabni shakllantirish jarayonini ifodalaydi;

- ❖ muqaddas joyga yo'l olish (Iqtisodiy jihat — transport, ovqatlanish va yo'lbo'yi xizmatlariga talabni oshirish orqali xizmatlar bozorida iqtisodiy faollikni kuchaytiradi;

- ❖ ziyoratgoh atrofida muqaddas marosimni ado etish (Iqtisodiy jihat — ziyoratgoh hududida savdo, xizmat ko'rsatish va xayriya mablag'lari aylanishi orqali mahalliy iqtisodiy faollikni oshiradi);

- ❖ ruhiy ichki o'zgarish va ma'naviy yangilanish;

- ❖ vatanga qaytish (Iqtisodiy jihat — safar davomida shakllangan tajriba va sarf-xarajatlar natijasida mahalliy iste'mol, sovg'a-salom va xizmatlar orqali iqtisodiy aylanishni davom ettiradi.)



1-rasm. Ziyorat jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy konseptual modeli<sup>100</sup>

Mintaqada ziyorat turizmi sohasida iqtisodiy faoliyat yuritish natijasida band aholiga mehnatga haqi to'lash va davlat byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash orqali milliy daromad yaratiladi. Ziyorat turizmi sohasining bilvosita va bevosita hissasini samarali rivojlantirishga erishsak, quyidagi:

- mintaqaning yalpi hududiy daromadi soha hisobiga oshiriladi;

- mintaq byudjetining soliq va boshqa to'lovlarning o'sishi hisobiga to'ldiriladi;

- mintaq aholisining ish bilan ta'minlanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga erishiladi;

<sup>100</sup> Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



➤ chet mamlakatlar kapitali sohaga jalb etilishiga va valyuta tushumining ko'payishiga erishiladi;

➤ mintaqa ziyorat turizmi sohasini rivojlantirish barobarida davlatning boshqa sohaslarini ham rivojlantirish imkoniyati tug'iladi;

➤ mintaqa ziyorat turizmi infratuzilmasi va industriyasini rivojlantirishga erishiladi;

➤ mahalliy va xorijiy ziyoratchilarning dam olish tuzilmalarini isloh qilishga erishish kabi natijalarni qo'lga kiritamiz.

1-jadval.

**Butunjahon turizm va sayohat kengashi (WTTC) metodologiyasiga ko'ra, ziyorat turizmi sektori iqtisodiyotga qo'shadigan hissasining tarkibiy xususiyatlari<sup>101</sup>**

| <b>Mehmondo'stlik xizmatlari: yashash, ovqatlanish, transport, diqqatga sazovor joylar va ko'ngilochar joylar</b> |                                                                                                                                                                                                   |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Bevosita hissa</b>                                                                                             | Tarmoqlar: mehmonxonalar va restoranlar, transport, turagentliklar, chakana savdo, madaniyat, sport, rekreatsiya                                                                                  |
|                                                                                                                   | Daromad manbalari: rezidentlarning turizm va safar xarajatlari, turizm xizmatlari eksporti (nerezidentlarning xarajatlari, rezidentlarning ish safari xarajatlari, individual davlat xarajatlari) |
| <b>Bilvosita hissa</b>                                                                                            | Turizm sohasiga investitsiyalar: jamoaviy davlat xarajatlari, ichki ta'minot va xaridlar                                                                                                          |
| <b>Industriya-lang'an hissa</b>                                                                                   | Ixtisoslashgan turizm korxonalarining moddiy-texnika ta'minoti                                                                                                                                    |
|                                                                                                                   | Turizmga band bo'lgan xodimlar hayot faoliyati, tovarlari va xizmatlari (oziq-ovqat, ichimliklar, kiyim-bosh, turar-joy xizmatlari va xo'jalik tovarlari)                                         |

Mintaqada ziyorat turizmini rivojlantirish evaziga mintaqa iqtisodiyotini yuksaltirishga, aholining iqtisodiy-ijtimoiy hayotining o'nglanishiga, ularning yashash darajasi va sifatining oshirilishiga erishiladi. Biroq ziyorat turizmi ta'sirining asosiy natijali ko'rsatkichlari uning YHM va bandlikka qo'shgan hissasi hisoblanadi. Ziyorat turizmining iqtisodiy funksiyasi turizmning yalpi hududiy mahsulot yaratishga qo'shgan hissasida namoyon bo'ladi. Ziyorat turizmining YHM yaratishga qo'shgan hissasi ko'rsatkichi ziyorat turizmi hisobiga iqtisodiyotda yaratilgan qo'shilgan qiymatning bahosini ifodalaydi.

Ziyorat turizmi infratuzilmasi obyektlarini barpo etish va ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda xususiy biznesning sa'y-harakatlarini birlashtirishning eng istiqbolli yo'li davlat-xususiy sheriklikdir. Shu bois, ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun loyihalarni amalga oshirish vositalaridan biri sifatida DXSh mexanizmini joriy etishni taklif qildik. Aynan ziyorat turizmi sohasida ushbu mexanizmdan foydalanish innovatsion siyosat maqsadlarini amalga oshirish uchun qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish, shu bilan birga mintaqa iqtisodiy tizimining barcha darajalarida davlat va xususiy biznesning o'zaro hamkorligini ta'minlash imkonini beradi.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Ziyorat turizmi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biri bo'lib, u hududlarda qo'shimcha qiymat yaratish, xizmatlar sohasini kengaytirish, xususiy sektor faolligini oshirish hamda bandlikni ta'minlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ziyoratchilar oqimining ortishi infratuzilma modernizatsiyasini jadallashtiradi, mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytiradi va hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga xizmat qiladi. Shu bois, ziyorat

turizmi rivoji uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish lozim deb topdik:

Qashqadaryo viloyatining chekka va tabiiy-rekreatsion salohiyati yuqori bo'lgan hududlari — Dehqonobod, Yakkabog', Qamashi va Mirishkor va boshqa tumanlarining tog'li hamda cho'l zonalar — ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay tabiiy-landshaft sharoitiga ega. Xususan, Dehqonobod tumanining "Boshchorbog'" Kitob tumanining "G'elon", Mirishkor tumanining "Pomuq" qishloqlari va mintaqaning boshqa manzillarda noyob ekotizim, tabiiy relyef, bioxilma-xillik hamda etnomadaniy muhit mavjud. Shu bilan birga, ushbu hududlarda mahalliy aholi tomonidan ziyorat qilinadigan, biroq turizm infratuzilmasiga kiritilmagan, inshoot yoki me'moriy majmua sifatida shakllantirilmagan muqaddas maskanlar ham mavjud. Mazkur sharoitdan kelib chiqib, xorijiy turistlar oqimini diversifikatsiya qilish hamda hududiy iqtisodiy faollikni oshirish maqsadida "eko-safari-ziyosat turizmini integratsiyalash modeli"ni ishlab chiqish taklif etiladi. Ushbu model ekoturizm (tabiiy resurslar va landshaftdan barqaror foydalanish), safari elementlari (ekstremal va sarguzasht yo'nalishlari) hamda ziyorat turizmi (ma'naviy-madaniy meros obyektlari)ni yagona turistik mahsulot doirasida birlashtirishga qaratilgan.

Qashqadaryo mintaqasining bir qator tuman va shaharlarida ziyorat turizmi salohiyatidan to'liq miqyosda foydalanish ziyorat turizmi infratuzilmasi, shuningdek institutsional muhit rivojlanmaganligi (salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda ham zaif investitsiyaviy faollik) bilan cheklanib qolmoqda.

Ziyorat turizmi sohasida DXSh joriy etish ijtimoiy ahamiyatga ega ijtimoiy va iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish doirasida manfaatlarni muvofiqlashtirish, davlat va biznesning o'zaro hamkorligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmini ishlab chiqmay turib, turizm sohasida

<sup>101</sup> Uzaqov J.N ilmiy tadqiqotlari natijasida ishlab chigilgan  
<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Mazkur integratsiyalashgan yondashuv orqali hududlarda kichik biznes subyektlari, oilaviy mehmon uylari, gidlik xizmatlari hamda mahalliy hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Natijada, tabiiy va ma'naviy resurslardan oqilona foydalanish asosida chekka hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi oshadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi hamda Qashqadaryo viloyatining turistik brendi shakllanadi. Bu esa ziyorat turizmining mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

#### **Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details**

Uzaqov Jamshid Norboyevich–i.f.f.d., (PhD), dotsent Axborot texnologiyalari va menejment universiteti / Узakov Жамшид Норбоевич — доктор философии по экономическим наукам (PhD), доцент Университет информационных технологий и менеджмента / Uzakov Jamshid Norboyevich — Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Associate Professor University of Information Technologies and Management

**E-mail:** [jamshiduzokov0660@gmail.com](mailto:jamshiduzokov0660@gmail.com)

**ORCID:** <https://orcid.org/0009-0002-6420-9076>

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. [https://seads.adb.org/news/indonesia-and-malaysia-share-top-spot-global-muslim-travel-index-2023?utm\\_source](https://seads.adb.org/news/indonesia-and-malaysia-share-top-spot-global-muslim-travel-index-2023?utm_source)
2. [https://www.apta.uz/en/news/47?utm\\_source](https://www.apta.uz/en/news/47?utm_source)
3. [https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-travel-and-tourism?utm\\_source](https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-travel-and-tourism?utm_source)
4. <https://www.crescentrating.com/global-muslim-travel-index-gmti.html>
5. <https://www.salamstandard.org/The-Global-Economic-Impact-of-Muslim-Tourism-2017-to-2020.pdf>
6. I.S. Tuxliyev, R. Hayitboyev, B.Sh. Safarov, G.R. Tursunova., Turizm asoslari. Toshkent-2014. 3-4 b.
7. I. Tuxliyev, G'.X. Qudratov, M.Q. Pardayev., Turizmni rejalashtirish. Toshkent-2010. 12-16 b.
8. Uzaqov Jamshid Norboyevich., Zamonaviy innovatsion shakllar asosida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari. Innovatsion iqtisodiyot /Инновационная экономика / The innovation economy. 3-jild, 4-son, sentabr-2025. 201-bet



**INNOVATION**  
**IQTISODIYOT**  
**ILMIY-AMALIY ELEKTRON**  
**JURNAL**

ISSN: 3030-315X



[t.me/kstu\\_uz](https://t.me/kstu_uz)



Qarshi shahri,  
Mustaqillik ko'chasi 225



[www.kstu.uz](http://www.kstu.uz)  
[www.ojs.kstu.uz](http://www.ojs.kstu.uz)